

BO'LAJAK BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARINING O'QUVCHILAR OILALARI BILAN HAMKORLIK MUNOSABATLARINI O'RNATISH METODIKASI

Xamidova Barno Maxmudovna

Jizzax davlat pedagogika universiteti (PhD), dotsent v.b.

Hasanova Nozima G'ulomjon qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15253776>

Annotatsiya: Biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish bo'yicha kompetensiyasini rivojlantirish metodikasini ishlab chiqish hamda uni yoritib berishni asosiy maqsad qilib belgiladik.

Kalit so'zlar: Metodika, texnologiya, o'qituvchi, kompetentlik, o'quvchi.

Аннотация: основной целью мы поставили разработку и освещение методики развития компетенции будущих учителей начальных классов по построению отношений сотрудничества с семьями учащихся.


Ключевые слова: методист, технолог, преподаватель, компетентность, ученик.

“Metodika” atamasi muayyan pedagogik faoliyat bilan bog'liq bo'lib, pedagogik muammolarni hal qilish samaradorligini ta'minlaydigan usul va vositalarni qo'llashning o'ziga xosligini belgilaydi. Metodika tajribani umumlashtirish yoki bilimlarni ifodalash usullarini ixtiro qilish natijasida yuzaga keladi, texnologiya esa loyihalashtiradi.

Metodikaning texnologiyadan farqi shundaki, birinchidan, texnologiya belgilangan meyorlar asosida ijobiy natijani kafolatlaydi, metodika esa qo'llashda tavsiyaviy va variativ hisoblanadi, ikkinchidan, texnologiya ta'lim oluvchilarga, metodika esa ta'lim beruvchilarga yo'naltiriladi; uchinchidan, texnologiya protsessual-maqsadli va miqdoriy-hisoblash xususiyatiga ega, metodika mazmunida esa sifat va variativlik xususiyati mavjud [5].

Ko'plab olimlarning ilmiy tadqiqot ishlarini tahlil qilib biz bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatuvchi quyidagi bosqichli metodikani ishlab chiqdik (1-rasm).

1-rasm. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish bo'yicha kompetensiyasini rivojlantirish uchun



bosqichli o'qitish metodikasi

Tashxislash bosqichida – pedagogik tashxislash pedagog kadrlarning layoqati, qobiliyatlari, ular amal qiladigan qadriyatlarni, mavjud ko'nikma va malakalari darajasini, shuningdek, o'quv-tarbiyaviy jarayon sifatini hisobga olgan holda uning shakllanganlik darajasini aniqlash va baholash imkonini beradi [1].

1. Tashxislash bosqichida biz quyidagi metodlarni tavsiya qilamiz:
2. Test “Take a stand” (o’rnini egalla) va “Diagnostic interview” metodi – tashxislochi intervyu metodi bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining xususiyatlari haqida obyektiv axborot olish uchun kasbiy maslahatning dastlabki davrida foydalaniladigan metodni ifodalovchi atama [3]. Ushbu metod bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida mavjud kompetensiyalarni, bilimlarni va malakalarni aniqlash imkonini beradi. “Take a stand” (o’rnini egalla) metodida esa ta’lim oluvchilarga ta’lim beruvchi tomonidan kasbiy faoliyatiga oid savollar beriladi, javob tariqasida ta’lim oluvchilar “HA” va “YO’Q” javoblarini tanlashlari va joylarini egallashlari kerak bo’ladi. Mana shu ko’rsatilgan metodlar bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining ijtimoiy kompetentligining mavjudlik darajasini belgilaydi.

1. **Takomillashtirish bosqichida** – ushbu jarayonda bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari o’quvchilarning ota-onalari bilan ishlash to’g’risidagi ma’lumotlarga ega bo’ladilar. Ma’lumotlarni taqdim etishda biz quyidagi metodlardan foydalandik:

2. “Working together” (Jamoaviy ishlash), “Cooperative learning” (Hamkorlikda o’rganish) metodlari. Ushbu metodlar orqali bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari jamoaviy ta’lim olish, faoliyat olib borish, hamkorlikda muammolarni bartaraf etish, jamoaviy maqsad sari intilish va uning samaradorligi to’g’risida nazariy ma’lumotlarga ega bo’ladilar.

Adaptiv bosqichda - bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarida nazariy bilimlar mavjud, rivojlangan nazariy bilimlarni amaliyotga joriy qila oladi. Kasbiy faoliyati va o’quvchilarga ta’lim - tarbiya berish jarayoniga tatbiq qila oladi.

Adaptiv jarayonda “Teambuilding”, “Case study” metodlaridan foydalandik. Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilari kichik guruhlariga bo’linadi. Berilgan vazifa va topshiriqlarni jamoa bilan hamkorlikda bajaradilar.

Transformatsion bosqichda – bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining ijtimoiy kompetentligi rivojlantiriladi.

Bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish jarayonining samarali amalga oshirilishi ta’lim mazmuniga asoslanib ta’lim beruvchi va ta’lim oluvchilarning hamkorlikdagi faoliyatining tashkil etilishi bilan bog’liqdir. Bunda, albatta, ta’lim beruvchining pedagogik mahorati, nazariy va uslubiy tayyorgarligi, o’z kasbiy faoliyatiga munosabati kabi omillar bilan birga ta’lim jarayonini tashkil etishda davlat tomonidan o’rnatilgan ta’lim talablari asosida o’quv dasturlari, uslubiy ta’minotini ishlab chiqish ham muhim hisoblanadi.

Tadqiqotimiz doirasida bo’lajak boshlang’ich sinf o’qituvchilarining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishda biz “Boshlang’ich ta’limda tarbiya”, “Boshlang’ich ta’lim pedagogikasi” fanlarini nazariy va amaliy mashg’ulotlarining faol ta’lim metodlarini qo’llab o’qitish metodikasini ishlab chiqdik. “Boshlang’ich ta’limda tarbiya” o’quv modulining ma’ruza va amaliy mashg’ulotlariga ajratilgan 90 soat (40 soat ma’ruza, 50 soat amaliy) doirasida biz tomondan taklif etilgan mavzuning texnologik xaritasi tuzildi. Bunda ma’ruza mashg’ulot 2 soat, amaliy mashg’ulot ham 2 soat jami 4 soatga to’g’ri keladi. Har bir juftlik 80 daqiqadan jami 160 daqiqani tashkil etadi.

“Boshlang’ich ta’limda tarbiya” fanining “Tarbiya” fani o’qitish amaliyotini takomillashtirish yo’llari” nazariy mashg’ulotini o’tkazish texnologik xaritasi

Bosqich va vaqt meyorlari			Faoliyat mazmuni	
			Ta'lim beruvchi faoliyati	Ta'lim oluvchi faoliyati
	Mashg'ulotga kirish	10 daq	- Tashkiliy boshlanish - O'quv mashg'ulotiga "kirish" - Maqsad va vazifaning belgilanishi	Tinglaydilar, kerakli ma'lumotlarni belgilab oladilar. Maqsad va vazifani belgilab oladilar.
I	Boshlang'ich	20 daq	- Boshlang'ich bilimlarni tekshirish	O'z-o'zini baholaydilar
II	Asosiy	40 daq	- Tayanch bilimlarni faollashtirish - Yangi o'quv materialiga kirish (Working together, teambuilding)	Savolga javob beradilar, kichik guruhlarda ishlaydilar, topshiriqlarni jamoaviy bajaradilar, ma'lumotlarni qayd etadilar.
V	Yakuniy	10 daq	- Mashg'ulotni yakunlash - Topshiriq beriladi	Diqqat qiladilar. Topshiriqni oladilar

Biz tomondan taklif etilayotgan ta'lim metodlari pedagogika oliy ta'lim muassasalarida yangi ma'lumotlarni o'zlashtirish, olgan bilimlarni mustahkamlash, baholash, rag'batlantirish va faollikni oshirishda ijobiy natija berishini hamda ta'lim beruvchiga murakkablik keltirib chiqarmasligini inobatga oldik. Mazkur metodlarning xususiyatlari shundan iboratki, bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida o'quvchilarning oilalari bilan hamkorlik munosabatlarini o'rnatish bo'yicha kompetensiyasini rivojlantirishga qaratilgan. Metodlarda qo'llanilayotgan savol-javob jarayonlari, topshiriqlarni bajarish, keyslarning barchasi pedagog kadrni jamoada faoliyat yuritishga undaydi hamda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borishda ijtimoiy kompetensiyasining ahamiyatini yoritishga xizmat qiladi.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xamidova B.M. Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchi-larining ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish xususiyatlari / Namangan Davlat universiteti ilmiy axborotnomasi. – NamDU, №

9., 2022, 247-251 betlar.

2. Xamidova B.M. Maktab va oila ortasidagi aloqaning asosiy shakllari / "Pedagogika innovatsiyalar va ularning amaliy tadbirlari: MUAMMOLAR VA YECHIMLAR Respublika ilmiy-amaliy anjumani Jizzax shahri, 2022 yil 5-oktabr, 275-279 betlar.

3. Xamidova B.M. Bo'lajak tarbiyachlarni innovasion faoliyatga tayyorlashda axboratlashtiril-gan ta'lim muhiti// Xotin-qizlarning fan, ta'lim, madaniyat va innovasion texnologiyalarni rivojlantirish sohasidagi yutuqlari mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari.-Jizzax 2021 yil, 544-546 betlar.

4. Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak uqituvchilarning kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish texnologiyalari. Diss. p.f.d. DSc. – T.: - 2019. – 218 b.

5. Хуторской.А.В. Ключевие компетенции и образовательные стандарты: стенограмма обсуждения доклада А.В. Хуторского в РАО / А.В.Хуторской // Ейдос: интернет-журнал. – 2002. – 23 апр. – Режим доступа: <http://www.ейдос.ру/жоурнал/2002/0423-1.htm>.